

## KOLLABARATIV TA'LIM TEXNOLOGIYASI

**G'olibnazarova Charos**

Jizzax davlat pedagogika universiteti  
maktab menejmenti 4-kurs talabalari

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lim, ta'lim texnologiyalari umumiy izohi, ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqida ma'lumotlar berib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiya, innovatsion ta'lim texnologiyalari, interaktiv metodlar, Aqliy hujum, FSMU, Bumerang, Nilufar guli, Kalster texnologiyalari, muammoli o'qitish metodi.

### ABSTRACT

This article provides information on education, a general explanation of educational technologies, and the use of innovative technologies in education.

**Keywords:** pedagogical technology, innovative educational technologies, interactive methods, Brainstorming, FSMU, Boomerang, Nilufar guli, Kalster technologies, problem-based teaching method.

*Bilishni hamma nodon ham eplashi mumkin. Eng asosiysi tushunishdir.*

**Albert Eynshteyn**

Birgalikda o'qitish ikki yoki undan ortiq o'qituvchilar sinfdagi o'quvchilarning muvaffaqiyatini rejalashtirish, o'qitish va nazorat qilish uchun mas'uliyatni o'z zimmlariga olganlarida sodir bo'ladi. Har bir o'qituvchi o'z tajribasi va tajribasidan kelib chiqib, darsga hissa qo'shadi. Xususan, ko'plab yangi dasturlar/ kurslar bir nechta an'anaviy fanlardan paydo bo'lganligisababli, professor-o'qituvchilar ushbu kurslar yoki dasturlarning ehtiyojlarini qondirish uchun o'z tajribalarini birlashtirishni zarur deb bilishadi (Kulynch, 1998). Birgalikda o'qitish, shuningdek, professor-o'qituvchilar birgalikda bir nechta darslarni "klaster kurslari" sifatida rejalashtirganda sodir bo'lishi mumkin.

Birgalikda o'qitish bir kurs ichida yoki kurslar o'rtasida sodir bo'lishi mumkin bo'lsa-da, adabiyot ko'pincha bitta kursga e'tibor beradi. Bunday hamkorlik turli formatlarda amalga oshirilishi mumkin. Vogler va Long (2003) hamkorlikning har xil turlarini umumlashtiradi, shujumladan: 1) turli sohalardagi professor-o'qituvchilar fanlararo kursni o'rgatuvchi kafedralar, 2) bir kafedraning professor-o'qituvchilari bir xil kursning turli bo'limlarini alohida bo'limga bo'limga aylantirish, o'z mutaxassisliklari bo'yicha ma'ruzalarni takrorlash, 3) kursning barcha bo'limlarida birgalikda taqdimot qiladigan jamoa a'zolari.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi turli mamlakatlardagi, jumladan, Amerikadagi J.Xopkins universiteti professori – R.Slavin (1990), Minnesot universiteti professori – R.Jonson, D.Jonson (1987), Koliforniya universiteti professori – SH.SHaron (1988), tomonidan ishlab ishlab chiqilgan.

Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlikda o'qitish, asosan o'quvchilarda DTS va fan dasturida qayd etilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, Isroil va Evropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o'qitish, yuqorida qayd etilganidek, ko'proq o'quvchilar tomonidan o'quv materialini qayta ishlash loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o'quv bahsi va munozaralar o'tkazishni nazarda tutadi.

Mazkur g'oyalar bir-birini to'ldiradi, didaktik jihatdan boyitadi va bir-birini taqozo etadi.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi didaktikada 1970 yillarda paydo bo'lgan. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, YAponiya, Isroil mamlakatlari ta'lim muassasalarida keng qo'llanila boshlagan.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi – o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish o'rganishdir.

Hamkorlikda o'qitish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida ongliklik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir o'quvchining tahlil olishdagi muvafaqqiyati guruh muvafaqqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga o'quv

materialini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam ubshirishga zamin tayyorlaydi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasida o'quvchilarni hamkorlikda o'qitishni tashkil etishning bir necha metodlari mavjud:

1. Komandada o'qitish (R.Slavin) da o'quvchilar teng sonli ikki komandaga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a'zolari o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o'quvchi mavzudan ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga e'tiborni qaratadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo'lgan R.Slavinning ta'kidlashicha, o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko'rsatma berilishi etarli emas. O'quvchilar tom ma'nodagi hamkorlik, har bir o'quvchining qo'lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining kundalik natijasi avval qo'lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. SHundagina o'quvchilar o'zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda mas'uliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga intiladi.

2. Kichik guruhlarda hamkorlikda hamkorlikda o'qitish (R.Slavin, 1986).

Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o'quvchidan tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O'quvchilarga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o'quvchi o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi.

O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.

O'quvchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga doir tadqiqotlarda asosiy e'tibor o'zaro munosabatning rivojlanishini o'rganishga qaratiladi, o'qitishni guruhli tashkil qilish jarayoni bayon qilinadi.

Psixolog A.V. Petrovskiy jamoadagi shaxslararo munosabatlar faoliyatdan kelib chiqishini o'rganib, ta'lim jarayonidagi o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorligini tashkil qilish faqat ularni muloqotga ehtiyojini qondirish vositasi emas, balki o'quv materialini o'zlashtirishning ham vositasi ekanligini ta'kidlagan edi.

O'zaro hamkorlikning muhim omili va o'quvchilarning o'zaro munosabati xususiyatini belgilovchi asos o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorligining shakllaridir. Hamkorlikdagi o'quv faoliyati o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining va birgalikdagi xatti-harakatlarining alohida turidirki, u o'zlashtirish ob'ektini, bilim faoliyatining barcha qismlarini qayta qurishni ta'minlaydi.

Hamkorlikdagi o'quv faoliyatining maqsadi o'zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli o'quvchilar ilgari surgan yangi g'oyalar va o'zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog'liq maqsadlar va sheriklikdagi shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir.

Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi hatti-harakatlarining tizimini tushunish kerak. Bunday xatti-harakat o'qituvchining o'quvchiga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi;

O'quvchilarning faolligi asta-sekin o'sib borib, butunlay ularning o'zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi; o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi munosabata esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo'ladi.

Pedagogika – psixologiya fanida hamkorlikning 8 ta shakli mavjud. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. faoliyatga kirish;
2. mustaqil harakatlar o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorlikda bajaradilar;
3. o'qituvchi harakatni boshlab beradi va unga o'quvchini jalb etadi;
4. taqlid harakatlari (o'qituvchidan ibrat olgan o'quvchi ana shu namuna asosida harakat qiladi);
5. madad harakatlari (o'qituvchi o'quvchiga oraliq maqsadni va unga erish usullarini tanlashda yordam beradi va oxirgi natijani nazorat qiladi);
6. o'zini – o'zi boshqarish harakatlari (o'qituvchi umumiy maqsadni ko'rsatishda oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi);
7. o'zini – o'zi ko'rsatuvchi harakatlar;
8. o'zini – o'zi uyushtiruvchi harakatlar.

Interaktivlik – o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta’siri. Hamkorlik faoliyatini takomil bosqichiga o‘tish jarayonida o‘zaro ta’sir o‘tkazish harakatini baholashdan o‘z-o‘zini baholash darajasiga ko‘tarilishi sodir bo‘ladi. Ushbu jarayon hamkorlik dinamikasidan dalolat beradigan eng muhim omillardan biri vazifasini o‘taydi.  
Modulli ta’lim texnologiyasi

Modulli texnologiya o‘qitishni modulli dars loyixasi asosida o‘qitishni tashkil etish demakdir. Modul, kurs mazmunini uch bo‘lakda yoki satxida qamrab oladi:

- to‘la
- qisqartirilgan
- chuqurlashtirilgan

dastur materiali (o‘quv dasturini) bir vaqtning o‘zida barcha ehtimol ko‘rilgan kodlarda: rasm, test, ramzlar va so‘z bilan berilishi mumkin. Modulli dastur o‘quv materiallarining avtonom qismi bo‘lib, quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

- aniq ifodaga ega bo‘lgan o‘quv maqsadi (maqsadli o‘quv dasturi)
- axborotlar banki, o‘qitilish dasturi shaklida ayni o‘quv material.
- maqsadlarga erishish bo‘yicha metodik qo‘llanma.
- zaruriy malakalarni shakllantirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar.
- qo‘yilgan modul maqsadiga qat’iy muvofiq qiluvchi nazorat ishi.

Modellashtirish turlari.

- tafakkurni modellashtirish
- ilmitatsion rollarga bo‘lib modellashtirish;
- tutashtiriluvchi chiziqlar usulida modellashtirish ma’ruza

Modulli texnologiyaning mohiyati ta’lim jarayonini modullar asosida loyixalashtirishdan ya’ni o‘quv va predmeti va uning bo‘limlari mazmunini tartibga solish. Ta’limning muayyan bosqichidan boshlab bo‘linmaydigan kasbiy faoliyatni mantiqan tugallangan qismlarga ajratishdan iboratdir.

So‘ngra ajratilgan har bir modul bo‘yicha shu modulning o‘zigagina taaaluqli bo‘lgan faoliyat mazmuni va ta’siri ddoirasi belgilanadi. Modulli texnologiya maqsadni ruyobga chiqarish uchun modul bosqichma-bosqich amalga toshiriladi. Ushbu jarayonda sodir etilayotgan har bir harakat o‘quv elementi sifatida qaraladi. O‘quv elementi ham o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

Faoliyatning aniq elementlarini o'rgatish bilan bog'liq bo'lgan nazariy va amaliy axborotlar, ta'lim uchun zarur bo'lgan faoliyatni ta'minlovchi materiallar xaqidagi ma'lumotlar, maqsadlar, identifikatsion ya'ni ta'lim oluvchilarni xarakatlantiruvchi maqsadlar, o'quv materiallari, o'quv sharoitini nazorat qilish instrumentlari, chunonchi, o'quvchilarni ko'zlangan natijalarga erishishlari uchun zarur shart-sharoitlar, testlar, maqsad etaloni va boshqalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Metodik xatolar o'quv xatolari bilan o'zaro bog'liq: o'rganish xatolari ko'p hollarda - o'qitish xatolari natijasidir. O'quv xatolari maxsus tashxislovchi jadvallarda har bir muammoli modul uchun guruhlanadi va keyinchalik kuchli ta'sir etuvchi vositalar sifatida foydalaniladi. Agar an'anaviy o'qitishda bilmaslikdan bilishga o'tish standartli vaziyatlarni qo'llash bilan chegaralansa, muammoli-modulli o'qitishda o'quvchining yaqindan rivojlanishi doirasi yangi bilimlarni yuzaki o'zlashtirish va noto'g'ri qo'llashga olib keladigan tanqidiy vaziyatlar - xatolar sohasigacha kengaytiriladi. Bunday sharoitda bilmaslikdan bilishga o'tish sohasi o'rganuvchi uchun asosiy muammoga aylanmaydi, balki tabiiy zveno bo'lib qoladi, ularning dolzarb rivojlanish mintaqasiga aylanadi.

Muammoli-modulli o'qitish texnologiyasining etakchi sifat belgisi - bu egiluvchanlik hisoblanadi. Zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishda egiluvchan avtomatlashtirilgan tizim muhim sanalgani kabi hozir ham, kelajakda ham pedagogik texnologiya samaradorligi ko'p jihatdan uning ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgaruvchan sharoitga moslasha olish va zudlik bilan ta'sir etish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. egiluvchanlik tuzilmali, mazmunli va texnologik holda bo'lishi mumkin.

*Tuzilmali* egiluvchanlik qator holatlar bilan ta'minlanadi: muammoli-modul tuzilmasining safarbarligi, muammoli-modulli dastur pog'onaliigi, egiluvchan jadval loyihasining mavjudligi va ko'p vazifali o'quv xonalarining jihozlanganlik imkoniyatlari va boshqa.

*Mazmunli* egiluvchanlik birinchi navbatda ta'lim mazmunini tabaqalashtirish va integratsiyalash imkoniyatlarida namoyon bo'ladi. Bunday imkoniyatning o'zi taklif etilayotgan texnologiyada o'quv materialining blok va modulli printsip asosida saralanish evaziga vujudga keladi.

*Texnologik* egiluvchanlik muammoli-modulli ta'lim jarayonining quyidagi jihati bilan ta'minlanadi: o'qitish metodlarining variantligi, nazorat va baholash tizimining egiluvchanligi, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini yakka tartibda tashkil etish va boshqa.

M.A.Choshanovning ta'kidlashicha, kasb maktablarida o'qitish jarayonini muammoli-modulli asosga o'tkazish quyidagilarga imkon beradi:

- o'quv materialining muammoli modullarini guruhlash yo'li bilan kursni to'liq, qisqargan va chuqurlashtirilgan variantlarini ishlab chiqishni ta'minlaydigan dialektik birlikda integratsiyalash va tabaqalashtirishni amalga oshirish;

- bilim darajasiga bog'liq holda talabalarning u yoki bu muammoli-modulli dastur variantini mustaqil tanlashi va ularning dastur bo'ylab individual siljish sur'atini ta'minlanishi;

- muammoli modullardan pedagogik dasturli vositalarni yaratish uchun stsenariylar sifatida foydalanish;

- o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishda o'qituvchi ishida maslahatchi-koordinatsiyalovchi vazifaga urg'uni ko'chirish;

- o'quv materialini bayon qilish tezligi va o'zlashtirish darajasiga putr etkazmagan holda o'qitish metodlari va shakllari majmuasiga moslik asosida kursni qisqartirish.

Xulosa o'rnida shuni aytsak bo'ladiki, ta'limning samaradorligini va uzluksizligini ta'minlashda barcha ta'lim texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar ta'lim tizimidagi zamonaviy yutuqlarni tahlil qilish orqali, yurtimizda fan yutuqlarini qo'llashimiz, ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning asosiy mazmuni ta'lim sifatini boyitishga, ta'lim jarayonida beriladigan bilim va ko'nikmalarning tahsil oluvchilar tomonidan to'laqonli o'zlashtirilishiga hamda ularning o'z ustilarida mustaqil ishlab yuqori marralarga erishishidir. Natijada erkin fikrli, dunyoqarashi keng, ijodkor, innovatorlar yetishib chiqadi bu esa bizning oily maqsadimiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun // Xalq ta'limi. 1997. №5. S.4-16.
2. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni. "Xalq so'zi". 11 fevral, 2004 y.
3. "Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. "Xalq so'zi" gazetasi, 2005, 3-iyun.